




O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI
ADMINISTRATSIYASI HUZURIDAGI
**TA'LIM SIFATINI TA'MINLASH
MILLIY AGENTLIGI**

TA'LIM DASTURINI
MAXSUS DAVLAT AKKREDITATSIYASIDAN O'TKAZISH BO'YICHA

YAKUNIY HISOBOT



ANDIJON DAVLAT TEXNIKA INSTITUTI
Davlat oliy ta'lim tashkiloti

60410900 – Biznesni boshqarish
Bakalavriat



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI
ADMINISTRATSIYASI HUZURIDAGI
TA'LIM SIFATINI TA'MINLASH MILLIY AGENTLIGI**

60410900 – Biznesni boshqarish

**TA'LIM DASTURINI MAXSUS DAVLAT AKKREDITATSIYASIDAN
O'TKAZISH BO'YICHA YAKUNIY HISOBOT**

ANDIJON DAVLAT TEXNIKA INSTITUTI

(Ekspert komissiyasi xulosasi asosida)

EKSPERT KOMISSIYASI TARKIBI



Rais: TEMIRXANOVA MO'TABAR JO'RAYEVNA

“Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti” Milliy tadqiqot universiteti

fan doktori (DSc)



A'zo: DMITRII NERSESIAN

Accreditation Agency of Curaçao (AAC)

1. UMUMIY MA'LUMOTLAR

Ariza raqami	MAO260043
Xulosa raqami	1190
Xulosa sanasi	23.06.2026
Ta'lim tashkilotining to'liq nomi	"ANDIJON DAVLAT TEXNIKA INSTITUTI" DAVLAT MUASSASASI
Tashkilot manzili, litsenziya / identifikatsiya ma'lumotlari	Andijon viloyati, Andijon shahri, Bobur shox ko'chasi, 56-uy. Guvohnoma: MAS № 0000275, 08.07.2026.
Baholangan ta'lim dasturi nomi	Biznesni boshqarish
Yo'nalish / mutaxassislik kodi	60410900
Akkreditatsiya usuli	masofaviy / joyiga chiqib

2. HUQUQIY ASOSLAR

Xulosa tayyorlanishiga asos bo'lgan normativ-huquqiy hujjat:

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'rta maxsus, kasbiy, oliy va oliy ta'limdan keyingi ta'lim, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tashkilotlarini kompleks hamda maxsus davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish tizimini joriy etish to'g'risida" 2025-yil 6-avgustdagi 498-son qarori 1-ilovasi bilan tasdiqlangan "O'rta maxsus, kasbiy, oliy va oliy ta'limdan keyingi ta'lim, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tashkilotlarini kompleks hamda maxsus davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish tartibi to'g'risida"gi Nizom.

Maxsus davlat akkreditatsiyasi:

O'rta maxsus, kasbiy, oliy ta'limni va oliy ta'limdan keyingi ta'limni, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni amalga oshiruvchi davlat va nodavlat ta'lim tashkilotlarida ta'lim dasturlari bo'yicha o'quv jarayoni boshlanishidan oldin amalga oshiriladigan jarayon.

3. TA'LIM DASTURINING UMUMIY TAVSIFI

1. Ta'lim tashkilotining litsenziya/guvohnomasi: <i>License/Certificate of Educational Institution:</i>	MAS № 0000275, 08.07.2026
2. Ta'lim tashkilotining turi: <i>Type of Educational Institution:</i>	Davlat oliy ta'lim tashkiloti
3. Ta'lim dasturi kodi va nomi: <i>Code and Name of Study Programme:</i>	60410900 – Biznesni boshqarish
4. Ta'lim dasturining ingliz tilida nomlanishi: <i>Name of Study Programme in English:</i>	60410900 – Business Management
5. Ta'lim dasturining rus tilida nomlanishi: <i>Name of Study Programme in Russian:</i>	60410900 – Управление бизнесом
6. Hamkorlikda amalga oshirilishi: <i>Offered in Cooperation with:</i>	—
7. Ta'lim tili: <i>Medium of Instruction:</i>	o'zbek
8. Ta'lim shakli: <i>Mode of Study:</i>	kunduzgi / kechki
9. Ta'lim dasturi hajmi: <i>Study Programme Credits:</i>	240 kredit
10. Ta'lim dasturi davomiyligi: <i>Duration of Study Programme:</i>	4 yil / 4,5 yil
11. Milliy malaka ramkasidagi darajasi: <i>Level in National Qualifications Framework:</i>	6-daraja
12. Kvalifikatsiya(lar) nomi: <i>Qualification Title:</i>	Iqtisodchi
13. Qo'shimcha beriladigan kvalifikatsiyalar: <i>Additional Qualifications Awarded:</i>	—
14. Ta'lim dasturi yakunida beriladigan hujjat turi: <i>Type of Document Issued Upon Completion:</i>	Davlat namunasidagi diplom
15. Ta'lim oluvchilarning me'yoriy miqdori (to'liq davr): <i>Maximum Number of Students (full period):</i>	300 nafar
16. Ta'lim dasturini o'qitish manzili: <i>Address Where the Study Programme is Delivered:</i>	Andijon viloyati, Andijon shahri, Bobur shox ko'chasi, 56-uy

4. BAHOLASH YO'NALISHLARI VA MEZONLAR BO'YICHA NATIJALAR

Har bir yo'nalish bo'yicha baho (muvofoq / muvofoq emas) va har bir mezon bo'yicha baho (muvofoq / qisman muvofoq / muvofoq emas) deb baholanadi.

№	Baholash yo'nalish (bob) va mezonlari	Muvofiqligi
1.	Tashkiliy-boshqaruv va sifatni ta'minlash	Muvofiq
1.1.	<i>ta'lim dasturini amalga oshirish bo'yicha tarkibiy tuzilma va uning samarali ishlash mexanizmlarining mavjudligi;*</i>	Muvofiq
1.2.	<i>ta'lim dasturini rivojlantirish va moliyaviy barqarorligini ta'minlash bo'yicha 5 yillik istiqbolli rejaning mavjudligi;</i>	Muvofiq
1.3.	<i>ta'lim dasturi doirasida sifatni ichki ta'minlash mexanizmining mavjudligi hamda bu jarayonlarda manfaatdor tomonlarning ishtiroki ta'minlangani;</i>	Muvofiq
1.4.	<i>mehnat bozori va ta'lim ehtiyojlari hamda ilmiy-tadqiqotning so'nggi tendensiyalarini aniqlash bo'yicha monitoring tizimining mavjudligi;</i>	Muvofiq
2.	Ta'lim dasturlari	Muvofiq
2.1.	<i>manfaatdor tomonlar ishtirokida ta'lim dasturining belgilangan tartibda ishlab chiqilgani. Bunda ta'lim dasturining maqsadi, natijalarining belgilangani, mehnat bozori, davlat ta'lim standarti va milliy malakalar ramkasi talablariga muvofiqligi;*</i>	Muvofiq
2.2.	<i>ta'lim dasturining milliy ta'lim tizimidagi ustuvor yo'nalishlar va xalqaro andozalar asosida ishlab chiqilgani;</i>	Muvofiq
2.3.	<i>ta'lim dasturining davomiyligi, fanlarning uzviyligi va uzluksizligi ta'minlangani;</i>	Muvofiq
3.	O'quv jarayonini tashkil etish va o'quv natijalarini baholash	Muvofiq
3.1.	<i>ishchi o'quv reja va dasturlarining belgilangan talablarga muvofiq ishlab chiqilgani;*</i>	Muvofiq
3.2.	<i>o'quv jarayonining ta'lim dasturida belgilangan o'quv natijalariga erishishga yo'naltirilgani;*</i>	Muvofiq
3.3.	<i>o'quv jarayonining doimiy baholab borilishi va takomillashtirishga qaratilgani;</i>	Muvofiq
3.5.	<i>ta'lim dasturi doirasida talabalar bilimining shaffof va xolis baholanishi, baholash jarayonlarining o'quv natijalariga muvofiqligi;</i>	Muvofiq
3.6.	<i>talabalarning baholash natijalari bo'yicha fikr-mulohazalarini olish imkoniyati mavjudligi;</i>	Muvofiq
3.7.	<i>ta'lim dasturida akademik halollik qoidalarining belgilangani va unga zid holatlarning oldini olish bo'yicha samarali tizimning mavjudligi;*</i>	Muvofiq

No	Baholash yo'nalish (bob) va mezonlari	Muvofiqligi
4.	Talabalar faoliyati	Muvofiq
4.1.	<i>ta'lim dasturi bo'yicha qabul talablari aniq belgilangani, o'qishga qabul qilish shaffof tarzda yo'lga qo'yilgani;</i>	Muvofiq
4.2.	<i>qabul parametrlarining ta'lim tashkilotining resurslari va imkoniyatlariga mos kelishi;*</i>	Muvofiq
4.3.	<i>talabalarining o'qishini ko'chirish, kursdan-kursga o'tkazish (qoldirish), o'qishdan chetlashtirish va o'qishini qayta tiklash tartibining belgilangani;*</i>	Muvofiq
4.4.	<i>talabalarni qo'llab-quvvatlash va ularga maslahat berish mexanizmlarining mavjudligi;</i>	Muvofiq
5.	Inson resurslari	Muvofiq
5.1.	<i>ta'lim dasturi uchun belgilangan me'yorlarga muvofiq pedagog kadrlar, shuningdek, boshqaruv, texnik, xizmat ko'rsatuvchi va o'quv-yordamchi xodimlar mavjudligi hamda ularning sifat tarkibi, malakasi va mutaxassisligi belgilangan talablarga mosligi;*</i>	Muvofiq
5.3.	<i>yangi ta'lim dasturlari bo'yicha o'quv rejadagi fanlarga mos (tegishli) kasbiy, pedagogik va ilmiy kompetensiyalarga ega pedagog kadrlar bilan ta'minlash bo'yicha aniq rejaning mavjudligi;*</i>	Muvofiq
5.4.	<i>kadrlarning kasbiy rivojlanishi va malaka oshirishiga sharoit yaratilgani, moddiy va ma'naviy rag'batlantirish tizimining mavjudligi;</i>	Muvofiq
6.	Moddiy-texnik ta'minot	Muvofiq
6.1.	<i>ta'lim dasturini amalga oshirish uchun amaliy, laboratoriya mashg'ulotlari va kurs ishi (loyiha)ni bajarish uchun zarur asbob-uskunalar, jihozlar, inventarlar, texnikalar, xomashyo materiallari va boshqalarning mavjudligi hamda metodik qo'llanma (ko'rsatma)lar bilan ta'minlangani;*</i>	Muvofiq
6.2.	<i>fanlar kesimida o'quv va o'quv-metodik adabiyotlar, elektron ta'lim resurslari bilan belgilangan talablarga muvofiq ta'minlangani;*</i>	Muvofiq
6.3.	<i>o'quv va laboratoriya xonalari hamda ustaxona (poligon)larning talabalar sonidan kelib chiqib, ta'lim dasturlariga mos jihozlar va axborot-kommunikatsiya vositalari bilan ta'minlangani hamda xavfsizlik qoidalariga rioya qilingani;*</i>	Muvofiq
6.4.	<i>inklyuziv ta'lim olish uchun binolar va jihozlarning moslashtirilgani, maxsus o'quv materiallarining mavjudligi, axborot-kommunikatsiya vositalaridan foydalanish imkoniyati yaratilgani;</i>	Muvofiq
6.5.	<i>axborot-resurs markazining (kutubxonaning) ta'lim dasturlariga mos o'quv adabiyotlari, kompyuterlar bilan ta'minlangani, o'quv zali va elektron kutubxonaning mavjudligi;*</i>	Muvofiq

No	Baholash yo'nalish (bob) va mezonlari	Muvofiqligi
6.6.	<i>raqamli ta'lim muhiti yaratilgani (LMS, wi-fi zonalari, onlayn kurslar, vebinarlar va masofaviy ta'lim imkoniyatlari);</i>	Muvofiq
6.7.	<i>ta'lim dasturi xususiyatidan kelib chiqib, maxsus xona yoki bino va inshootlarining (sport zali, stadion, musiqa xonasi va boshqalarning) mavjudligi.</i>	Muvofiq

5. BAHOLASH YO'NALISHLARI (BOB) BO'YICHA XULOSALAR

1-bob. Tashkiliy-boshqaruv va sifatni ta'minlash yo'nalishi

1-bob doirasida taqdim etilgan hujjatlar, ichki me'yoriy asoslar hamda ta'lim dasturini tashkil etish va boshqarishga oid materiallar belgilangan mezonlar asosida tahlil qilindi. O'tkazilgan tahlillar natijasida Andijon davlat texnika institutining strategik rivojlanish dasturiga muvofiq hamda mehnat bozorining dinamik ehtiyojlarini inobatga olgan holda institut rektorining 2026-yil 5-yanvardagi 5-k-son buyrug'i asosida "Iqtisodiyot va boshqaruv" fakulteti tarkibida "Menejment" kafedrası tashkil etilgani aniqlandi. Kafedraning vakolatlari, vazifalari va mas'uliyati amaldagi me'yoriy hujjatlar bilan belgilangan bo'lib, ta'lim dasturini samarali amalga oshirish uchun zarur tashkiliy-boshqaruv asoslari hamda ichki sifatni ta'minlash mexanizmlari shakllantirilgani qayd etildi. Yangi ta'lim yo'nalishini joriy etishdan oldin mas'ul kafedraning rasmiy buyruq asosida tashkil etilgani ta'lim dasturini amalga oshirish bo'yicha institutsional tayyorgarlikning mavjudligini ko'rsatishi aniqlandi. Umuman, tashkiliy-boshqaruv tizimi va ta'lim sifatini ta'minlash bo'yicha yaratilgan amaliyot belgilangan mezonlar talablariga mosligi tasdiqlandi.

2-bob. Ta'lim dasturlari yo'nalishi

2-bob doirasida taqdim etilgan hujjatlar, o'quv-uslubiy materiallar hamda ta'lim dasturining mazmuni belgilangan mezonlar asosida tahlil qilindi. O'tkazilgan tahlillar natijasida "Biznesni boshqarish" ta'lim yo'nalishining mazmuni mamlakat iqtisodiyoti, kichik biznes va tadbirkorlik sohasining istiqbolli rivojlanish ehtiyojlarini inobatga olgan holda shakllantirilgani aniqlandi. Ta'lim dasturida zamonaviy boshqaruv yondashuvlari, logistika jarayonlari, raqamli boshqaruv texnologiyalari hamda amaliy faoliyat uchun zarur kompetensiyalar o'z aksini topgani qayd etildi. Dastur maqsadlari, kutilayotgan o'quv natijalari va shakllantiriladigan kompetensiyalar o'zaro uzviy bog'langan bo'lib, ular mehnat bozori talablariga

muvofiq ishlab chiqilgani tasdiqlandi. Texnika yo'nalishidagi oliy ta'lim muassasasida biznesni boshqarish ta'lim yo'nalishining joriy etilishi muhandislik va boshqaruv kompetensiyalarini uyg'unlashtirish, ishlab chiqarish va biznes jarayonlarini samarali boshqarishga qodir mutaxassislarni tayyorlash uchun qulay imkoniyat yaratishi aniqlandi. Ta'lim dasturi yakunida bitiruvchiga "Iqtisodchi" kvalifikatsiyasi berilishi uning kasbiy faoliyatga tayyorligini ta'minlashga xizmat qilishi qayd etildi. Umuman, ta'lim dasturining mazmuni, tuzilishi va kutilayotgan o'quv natijalari belgilangan mezonlar talablariga mosligi tasdiqlandi.

3-bob. O'quv jarayonini tashkil etish va o'quv natijalarini baholash yo'nalishi

3-bob doirasida ta'lim dasturi bo'yicha o'quv jarayonini tashkil etish hamda o'quv natijalarini baholash tizimi belgilangan mezonlar asosida tahlil qilindi. O'tkazilgan tahlillar natijasida "Biznesni boshqarish" ta'lim yo'nalishi bo'yicha o'quv rejalari va fan sillabuslari ish beruvchilar, talabalar hamda soha mutaxassislari ishtirokida ishlab chiqilgani va ularni muntazam takomillashtirish amaliyoti yo'lga qo'yilgani aniqlandi. Mazkur yondashuv ta'lim dasturining mehnat bozori ehtiyojlariga mosligini ta'minlash, o'quv mazmunini zamonaviy talablar asosida yangilab borish hamda bitiruvchilarning kasbiy tayyorgarligini oshirishga xizmat qilishi qayd etildi. Sillabuslarni takomillashtirish jarayonida talabalar fikr-mulohazalarining inobatga olinishi ta'lim jarayonining sifatini oshirish va manfaatdor tomonlar ishtirokini ta'minlash nuqtai nazaridan ijobiy amaliyot ekani aniqlandi. Shuningdek, o'quv natijalarini baholash mezonlarining shaffofligi, xolisligi hamda akademik halollik tamoyillariga rioya etilishini ta'minlovchi tartiblar amaliyotga joriy etilgani kuzatildi. Umuman, o'quv jarayonini tashkil etish va o'quv natijalarini baholash tizimi belgilangan mezonlar talablariga mosligi tasdiqlandi.

4-bob. Talabalar faoliyati yo'nalishi

4-bob doirasida talabalar faoliyatini tashkil etish, qabul jarayonlari hamda ularni qo'llab-quvvatlash tizimi belgilangan mezonlar asosida tahlil qilindi. O'tkazilgan tahlillar natijasida "Biznesni boshqarish" ta'lim dasturiga qabul qilish mezonlari va talablari amaldagi normativ-huquqiy hujjatlar asosida aniq belgilanganligi hamda ularning abituriyentlar, ota-onalar va boshqa manfaatdor tomonlarga ochiq, shaffof hamda teng imkoniyatlar tamoyillari asosida yetkazilishi ta'minlangani aniqlandi. Qabul jarayonlari adolatlilik va shaffoflik tamoyillari asosida tashkil etilgani, apellyatsiya tartiblari hamda murojaatlarni ko'rib chiqish mexanizmlarining amaldagi me'yoriy hujjatlar bilan tartibga solingani qayd etildi. Qabul jarayoni

to'g'risidagi axborotlarni yetkazishda ota-onalar auditoriyasining alohida qamrab olinishi ta'lim tashkilotining ochiqlik siyosati va manfaatdor tomonlar bilan samarali muloqotini ta'minlovchi ijobiy amaliyot sifatida baholandi. Shuningdek, talabalarni akademik, ijtimoiy va kasbiy jihatdan qo'llab-quvvatlashga qaratilgan mexanizmlarning amaliyotga joriy etilgani kuzatildi. Umuman, talabalar faoliyatini tashkil etish va qo'llab-quvvatlash tizimi belgilangan mezonlar talablariga mosligi tasdiqlandi.

5-bob. Inson resurslari yo'nalishi

5-bob doirasida inson resurslarini shakllantirish, rivojlantirish va boshqarish tizimi belgilangan mezonlar asosida tahlil qilindi. O'tkazilgan tahlillar natijasida ta'lim dasturini amalga oshirish uchun professor-o'qituvchilar tarkibi ta'lim yo'nalishining xususiyatlari, o'quv yuklamasi, fanlar tarkibi hamda dasturda nazarda tutilgan kompetensiyalarni shakllantirish ehtiyojidan kelib chiqib shakllantirilgani aniqlandi. Professor-o'qituvchilarning kasbiy faoliyatini baholash, yuqori natijalarga erishgan xodimlarni moddiy va ma'naviy rag'batlantirish hamda kasbiy rivojlanishga ehtiyoji mavjud pedagoglar uchun qo'shimcha metodik yordam va malaka oshirish choralari amalga oshirish mexanizmlari yo'lga qo'yilgani qayd etildi. Rag'batlantirish tizimi bilan metodik qo'llab-quvvatlash choralari o'zaro uyg'un holda qo'llanilishi inson resurslarini boshqarishning muvozanatli va samarali yondashuvi sifatida baholandi. Umuman, inson resurslarini boshqarish va rivojlantirish tizimi belgilangan mezonlar talablariga mosligi tasdiqlandi.

6-bob. Moddiy-texnik ta'minot yo'nalishi

6-bob doirasida taqdim etilgan hujjatlar, moddiy-texnik baza hamda o'quv infratuzilmasiga oid ma'lumotlar belgilangan mezonlar asosida tahlil qilindi. O'tkazilgan tahlillar natijasida ta'lim dasturi bo'yicha amaliy mashg'ulotlarni samarali tashkil etish uchun zarur asbob-uskunalar, jihozlar, inventar va texnik vositalar mavjudligi hamda ularning ta'lim dasturi maqsadlari va kutilayotgan o'quv natijalariga mosligi aniqlandi. Elektron axborot-resurslar va raqamli ta'lim muhitidan samarali foydalanishni ta'minlash maqsadida professor-o'qituvchilar va xodimlar uchun muntazam seminar-treninglar tashkil etilishi, ularga foydalanish bo'yicha uslubiy yo'riqnomalar taqdim etilishi qayd etildi. Moddiy-texnik bazaning mavjudligi bilan bir qatorda undan samarali foydalanish bo'yicha amaliy ko'nikmalarni tizimli rivojlantirish ta'lim sifatini oshirishga xizmat qiluvchi ijobiy yondashuv sifatida baholandi. Shu bilan birga, biznesni boshqarish yo'nalishining zamonaviy talablarini

inobatga olib, raqamli boshqaruv va biznes analitikasi dasturiy vositalari bazasini yanada kengaytirish maqsadga muvofiq ekani qayd etildi. Umuman, moddiy-texnik baza, axborot-resurs ta'minoti va o'quv infratuzilmasi belgilangan mezonlar talablariga mosligi tasdiqlandi.

6. BAHOLASH YO'NALISHLARI (BOB) BO'YICHA ANIQLANGAN KAMCHILIKLAR VA NOMUVOFIQLIKLAR

Jiddiy kamchiliklar (akkreditatsiyaga to'sqinlik qiluvchi):

Ta'lim dasturini yo'lga qo'yish uchun to'sqinlik qiladigan jiddiy kamchiliklar aniqlanmadi

Bartaraf etilishi lozim bo'lgan juz'iy kamchiliklar:

- ✓ Ayrim indikatorlar bo'yicha dalillovchi materiallar bazasini kengaytirish maqsadga muvofiq.
- ✓ Raqamli boshqaruv dasturlari va biznes-ma'lumotlar bazalariga kirish imkoniyatini kengaytirish tavsiya etiladi.
- ✓ Ish beruvchilar bilan amaliyot hamkorligini kengaytirish maqsadga muvofiq.

7. TA'LIM DASTURINI SIFATLI TASHKIL ETISH BO'YICHA TAVSIYALAR

- ✓ Dalillovchi materiallar bazasini kengaytirish va o'quv-metodik ta'minotni yangilash.
- ✓ Raqamli boshqaruv dasturlari va biznes-ma'lumotlar bazalariga kirishni kengaytirish.
- ✓ Kichik biznes va tadbirkorlik subyektlari bilan amaliyot hamkorligini rivojlantirish.
- ✓ Professor-o'qituvchilarning amaliy boshqaruv salohiyatini oshirish.

8. TA'LIM DASTURI BO'YICHA YAKUNIY XULOSA

Baholash natijalariga ko'ra, "Andijon davlat texnika instituti"da 60410900 – "Biznesni boshqarish" bakalavriat ta'lim dasturi bo'yicha taqdim etilgan hujjatlar, o'quv-uslubiy materiallar, tashkiliy-boshqaruv mexanizmlari, kadrlar salohiyati hamda moddiy-texnik baza kompleks ravishda tahlil qilindi. O'tkazilgan tahlillar natijasida ta'lim dasturini amalga oshirish uchun zarur tashkiliy-huquqiy va institutsional asoslar shakllantirilgani, institut rektorining 2026-yil 5-yanvardagi 5-k-son buyrug'i asosida "Iqtisodiyot va boshqaruv" fakulteti tarkibida "Menejment" kafedrası tashkil etilgani aniqlandi. Ta'lim dasturining mazmuni mamlakat iqtisodiyoti hamda kichik biznes va tadbirkorlik sohasining istiqbolli rivojlanish ehtiyojlarini inobatga olgan holda shakllantirilgani, o'quv rejalari va fan sillabuslari

ish beruvchilar, talabalar hamda soha mutaxassislari ishtirokida ishlab chiqilgani va muntazam takomillashtirib borilishi qayd etildi. Qabul mezonlari va tartiblari abituriyentlar hamda ota-onalar uchun ochiq va shaffof tarzda tashkil etilgani, professor-o'qituvchilarni rag'batlantirish va metodik qo'llab-quvvatlash tizimi yo'lga qo'yilgani, amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish uchun zarur moddiy-texnik baza va jihozlar mavjudligi tasdiqlandi. Tahlil davomida aniqlangan ayrim jihatlar ta'lim dasturining amalga oshirilishiga salbiy ta'sir ko'rsatmaydigan, uni yanada takomillashtirishga qaratilgan tavsiyaviy xususiyatga ega ekani e'tirof etildi. Umuman, ta'lim dasturining akkreditatsiya mezonlari bo'yicha belgilangan talablarni qanoatlantirishi tasdiqlandi va dastur akkreditatsiya talablari bo'yicha MUVOFIQ deb baholandi.

9. TA'LIM DASTURI BO'YICHA AKKREDITATSIYA KOMISSIYASI QARORI

Akkreditatsiya komissiyasi qarori sanasi:	02.07.2026
Akkreditatsiya komissiyasi bayon soni:	4-son
Yakuniy qaror:	AKKREDITATSIYADAN O'TDI



+998 55 505 30 30



info@nqaee.uz
www.nqaee.uz



@nqaeeuz



@nqaeeuzbot

